



MAHALLIY BYUDJETLARNING SOLIQLI DAROMADLARIGA MAKROIQTISODIY INDIKATORLARNING TA'SIRI TAHЛИLI

Sholdarov Dilshod Azimiddin o'gli,

PhD, Toshkent moliya instituti dotsenti,

Toshkent, O'zbekiston. Email: dilshodsh86@il.ru

Tel: +998950012002

Achilov Uyg'unjon Ulugbekovich,

Toshkent moliya instituti katta o'qituvchisi,

Toshkent, O'zbekiston. Email: uygunachilov@gmail.com

Tel: +998943411991

Orcid: 0000-0001-6991-5629

Xalilova Shoxsanam G'ayratjon qizi,

Toshkent moliya instituti katta o'qituvchisi,

Toshkent, O'zbekiston. Email: xalilovash@tfi.uz

Tel: +998950018008

ANALYSIS OF THE INFLUENCE OF MACROECONOMIC INDICATORS ON TAXABLE REVENUES OF LOCAL BUDGETS

Sholdarov Dilshod Azimiddin ugli,

PhD, Associate Professor of Tashkent Institute of Finance,

Toshkent, Uzbekiston. Email: dilshodsh86@il.ru

Phone number: +998950012002

Achilov Uygunjon Ulugbekovich,

Senior lecturer of Tashkent Institute of Finance,

Toshkent, Uzbekiston. Email: uygunachilov@gmail.com

Phone number: +998943411991

Orcid: 0000-0001-6991-5629

Xalilova Shoxsanam Gayratjon qizi,

Senior lecturer of Tashkent Institute of Finance,

Toshkent, Uzbekiston. Email: xalilovash@tfi.uz

Phone number: +998950018008

JEL Classification: O1, O11

Annotatsiya: Mazkur maqolada

Farg'ona viloyati mahalliy byudjeti misolida byudjetning soliqli daromadlariga makroiqtisodiy omillarning ta'sirining tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda iqtisodiy voqelik jarayonlarini o'rGANISHNING ilmiy usullarini umumlashtirish, guruhlashshtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, qiyosiy tahlil, statistika, istiqbolli proqnozlash va guruhlash usullaridan keng foydalananilgan. Mahalliy byudjetlar daromadlarining tarkibiy o'zgarishlari, o'sish salmoqlari va

ularga omillar ta'siri bo'yicha qisqacha adabiyotlar sharhi keltirib o'tilgan.

Mahalliy byudjetlar daromadlari o'zgarishlariga ta'siri etuvchi omillar aniqlangan hamda ularning statistik ko'rsatkichlari o'rganilgan. O'rganishlar asosida bir nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Farg'ona viloyati mahalliy byudjeti daromadlari hamda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti va boshqa bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining tasviriy statistikasi shakllantirilgan, ularning o'zaro bog'liqlik koeffitsiyentlari aniqlangan.

Byudjetning soliqli daromadlariga iqtisodiyotdagi bandlar soni ishlab chiqarish korxonalari soni, iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi kabi ko'rsatkichlarning ta'siri ekonometrik modellashtirish orqali tadqiq qilingan va xulosalar shakllantirilgan.

Mahalliy byudjetlarning soliqli daromadlariga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi va iqtisodiyotda bandlar sonining ta'sirini baholovchi modelning ishonchliligi ekonometrik testlar orqali tekshirilgan va ishonchliligi baholangan. Darbin-Votson testi orqali modelda avtokorrelyatsiya mavjud emasligi aniqlangan.

***Abstract:** In this article, an analysis of the impact of macroeconomic factors on the tax revenues of the budget is carried out on the example of the local budget of Fergana region. In the research, generalization, grouping, logical and comparative methods of analysis, comparative analysis, statistics, perspective forecasting and grouping methods of scientific methods of studying economic reality processes are widely used. A brief review of the literature on structural changes of local budgets' incomes, growth weights, and the influence of factors on them is presented.*

Factors affecting changes in local budget revenues were identified and their statistical indicators were studied. Based on the studies, a theoretical view was put forward.

Descriptive statistics of revenues of the local budget of Fergana region, gross regional product of the region and a number of other macroeconomic indicators were formed, and their correlation coefficients were determined.

The influence of such indicators as the number of production enterprises, the volume of investments in the economy on the tax revenues of the budget was studied through econometric modeling and conclusions were drawn.

The reliability of the model assessing the effect of the volume of investments in fixed capital and the number of jobs in the economy on the tax revenues of local

budgets was checked by econometric tests and its reliability was evaluated. It was determined that there is no autocorrelation in the model by Darbin-Watson test.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, byudjet siyosati, mahalliy byudjet, moliyaviy barqarorlik, soliq, soliq siyosati, byudjet daromadlari, soliqli daromad, soliqsiz daromad, kapital.

Key words: economy, budget policy, local budget, financial stability, tax, tax policy, budget revenues, taxable income, tax-free income, capital.

Kirish. Mamlakatimizda byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri mahalliy byudjetlarga moliyaviy mustaqillik berish va moliyaviy barqarorligini ta'manlash hisoblanadi. Hozirgi kunda mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy ilohotlarini amalga oshirishdagi mas'uliyatini yanada oshirish, ularning barqaror daromad ba'zani yaratish, mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni iyliy jixatdan o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda byudjet-soliq sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida aholi turmush farovonligini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojiga keng imkoniyat yaratish maqsadi mujassamdir. Xususan, iqtisodiyotda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish mexanizmini soddallashtirish hamda soliq ma'murchilagini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ana shu maqsad ro'yobiga qaratilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi davlat siyosatining joylardagi samarali ijrosi mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy imkoniyatlariga bog'liqdir. Zamonaviy sharoitlarda esa mahalliy byudjetlarning daromad bazasini shakllantirish amaliyoti ularning to'liq moliyaviy mustaqilligini ta'minlash bilan

birga, hudud iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish orqali byudjetga tushumlarni ko'paytirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari rag'batlantiruvchi tavsifga ega bo'lmayotir.

Buyuk Britaniyada federal soliqlar mahalliy byudjetlar daromad qismining asosiy manbasi bo'lib, graflik va shaharlar byudjetlariga federal soliqlarning 70-90%ni o'tkaziladi. Germaniyada mahalliy byudjetlar daromad qismida mahalliy soliqlar ulushi yuqori emas, federal va o'lka byudjetlaridan ajratiladigan subsidiya va dotasiyalari 40%ni tashkil qiladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, Germaniyada "boy" o'lklar moliyaviy tushumlarining bir qismini rivojlanish darajasi nisbatan past o'lkalarga ajratadi va buning natijasida mahalliy byudjetlar vertikal tarzda taqsimlanadigan byudjet subsidiya va subvensiyalari hisobidan shakllanadi. Germaniyada byudjet subvensiyalari qat'iy belgilangan maqsadlarga sarflanib, asosan ijtimoiy sohaga ajratiladi[1].

Material va metod. Barchamizga ma'lumki, davlat moliyasini boshqarish tizimidagi eng dolzarb va yechimini hal qilish lozim bo'lgan masala sifatida mahalliy byudjetlarning daromadlilagini oshirishda umumiqtisodiy va moliyaviy omillarga bog'liq. Ko'pgina iqisodchi olimlar mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish va prognoz ko'rsatkichlarini byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtaida ijrosi yuzasidan izlanishlar olib borgan. Jumladan, prof. A.Toshmatov mahalliy byudjetga soliq tushumlarini oshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlarni keltirib o'tgan[2]. Soliqlarning turli darajadagi byudjetlar o'rtaida taqsimlash tizimini mahalliy byudjetlarning soliq tushumlarini oshirish bo'yicha fikr bildirib o'tgan.

O.Kenjaboyevning fikriga ko'ra. Mahalliy byudjetlarni samarali boshqaruvin

tizimini tartibga solishda soliq yukini asosli ravishda kamaytirish. Davlat byudjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlarning ulushini oshirish yoki soliqqa tortish nisbatini aniqlash lozimligini ta'kidlagan[3].

A.Burxonov, X.Qurbanovlar mahalliy byudjetlarning daromad manbaalarini oshirishga qaratilgan ilmiy hulosalarni asoslab berishgan. Birinchidan, viloyatda byudjetga undiriladigan daromadlarda nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarning ulushi yuqori bo'lmoqda. Ikkinchidan, tahlil qilinayotgan davrlarda viloyatning ayrim tumanlarida hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, ya'ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlanirish, investision faollikni yanada rivojlanirish hisobiga yangi korxonalarini tashkil etish, iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, soliqlar bo'yicha qarzdorliklarni kamaytirish, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi subyektlarni rasmiy sektorga o'tkazish orqali mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish yo'llarini keltirib o'tgan[4].

Tadqiqot davomida iqtisodiy vogelik jarayonlarini o'rganishning ilmiy usullarini umumlashtirish, guruhlashshtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, qiyosiy tahlil, statistika, istiqbolli prognozlash va guruplash usullaridan keng foydalanilgan.


Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar orqali davlatning muhim funksiyalari mablag' bilan ta'minlanadi, buning ustiga ular davlat byudjetining quyi etapi bo'lganligi sababli jamiyat bilan anchagina aloqadorligi kuchli. Bilamizki, byudjetlar o'rtaida mablag'lar taqsimotini amalga oshirishda "fiskal federalizm" va "fiskal unitarizm" usullaridan foydalaniladi. "Fiskal unitarizm" usulida byudjetga tushumlarning barchasini yoki aksariyatini markaziy byudjetga

to‘plagan holda, mablag‘lar mahalliy byudjetlarga transferlар tarzida o‘tkazish orqali taqsimot qilinsa, “fiskal federalizm” usulida soliqlar va soliqsiz daromadlarning bir qismi markaziy byudjetga, bir qismi mahalliy byudjetlarning daromadlari sifatida biriktiriladi, shu orqali mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi ta’minlanadi. Ko‘plab tadqiqotchilar, olimlar va ekspertlar davlat byudjeti mablag‘lari taqsimotini amalga oshirishda “fiskal unitarizm” usulining samarali ekanligini e’tirof etishadi.

O‘zbekistonda byudjet sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asl negizi hozirda mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu borada mahalliy davlat hokimiyati

organlariga moliyaviy erkinliklar berilmоqda, xususan, byudjet daromadlari prognozidan oshgan tushumlar mahalliy byudjetlarda qoldirilishi, ba’zi soliqlarning aynan mahalliy byudjetlarga biriktirilishi, investitsion faoliyat bo‘yicha erkinliklar shular jumlasidandir. Bu kabi o‘zgarishlar natijasida mahalliy boshqaruв organlarida byudjetga tushumlarni oshirish, qo‘srimcha soliq tushumlari manbalarinni topish, ishlab chiqarish faoliyati muhitini yaxshilash borasi intilishlarni oshiradi.

O‘zbekistonda mahalliy byudjetlarning aksariyat daromadlari mahalliy byudjetga biriktirilgan soliqlar va majburiy to‘lovlar hamda umumdavlat soliqlaridan normativlar bo‘yicha ajratilgan soliqli tushumlar hisobidan shakllanadi.



1-rasm. 2020 yilda Farg‘ona viloyati mahalliy byudjeti daromalarida soliqli va soliqsiz daromalar ulushi

Izox: *Iqtisod va moliya vazirligi ma’lumotlari*

Xususan, 2020 yilda Farg‘ona viloyati mahalliy byudjeti mablag‘larining 85 foizi soliqli daromadlardan iborat bo‘lgan. Shu nuqtai nazardan, mahalliy

Bizning tadqiqotimiz ham Farg‘ona viloyati misolida mahalliy byudjetlarning soliqli daromadlariga iqtisodiy o‘zgarishlarning ta’sirini baholovchi ekonometrik tahlilni amalga oshirishdir.

byudjetlar daromadlarini oshirish borasidagi tadqiqotlarning aksariyatida asosiy urg‘u soliqli daromadlarga va ularni oshirishga qaratiladi.

1-jadval ma’lumotlari asosida Farg‘ona viloyati mahalliy byudjeti soliqli daromadlariga viloyatdagi iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni (BS), viloyatda faoliyat ko‘rsatuvchi faol korxonalar soni (KS) hamda viloyatda o‘zlashtirilgan asosiy



kapitalga investitsiyalar hajmining amalga oshiramiz.
ta'sirini baholovchi modellashtirishni

1-jadval

Farg'ona viloyatining ba'zi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

| Yillar | Mahalliy byudjetning soliqli daromadlari (SD), mldr.so'm | Iqtisodiyotda bandlar soni (BS), ming nafar | Korxonalar soni (KS), dona | Asosiy kapitalga investitsiya (I) |
|--------|--|---|----------------------------|-----------------------------------|
| 2006 | 267 | 1170,6 | 12 101 | 178 |
| 2007 | 406 | 1206,4 | 13 086 | 273 |
| 2008 | 445 | 1280,1 | 14 872 | 485 |
| 2009 | 678 | 1311,7 | 15 504 | 663 |
| 2010 | 811 | 1340,4 | 16 879 | 931 |
| 2011 | 921 | 1367,6 | 18 259 | 1 261 |
| 2012 | 1 067 | 1398,8 | 19 016 | 1 506 |
| 2013 | 1 217 | 1431,1 | 19 230 | 2 130 |
| 2014 | 1 389 | 1462,8 | 21 173 | 2 295 |
| 2015 | 1 530 | 1485,3 | 21 795 | 2 542 |
| 2016 | 1 601 | 1508,3 | 23 083 | 2 644 |
| 2017 | 1 878 | 1525,7 | 23 310 | 2 955 |
| 2018 | 1 595 | 1451,0 | 25 571 | 5 539 |
| 2019 | 3 533 | 1492,6 | 29 128 | 8 685 |
| 2020 | 2 013 | 1438,3 | 35 379 | 11 320 |

Izox: Davlat statistika agentligi va Iqtisod va moliya vazirligi ma'lumotlari

Demak tadqiqotimizda natijaviy belgi mahalliy byudjetning soliqli daromadlarini - SD, omil belgilar

iqtisodiyotda bandlar sonini – BS, korxonalar sonini – KS, asosiy kapitalga investitsiyani – I kabi belgilab olamiz.

2-jadval

2006-2020 yillar bo'yicha foydalanilgan kuzatuvlarning tasviriy statistikasi

| Ko'rsatkich | O'rtacha | Mediana | Minimum | Maksimum |
|-------------|---------------------|------------|-------------|----------|
| SD | 1290,0 | 1217,0 | 267,43 | 3532,5 |
| BS | 1391,4 | 1431,1 | 1170,6 | 1525,7 |
| KS | 20559 | 19230 | 12101 | 35379,0 |
| I | 2893,8 | 2130,0 | 178,20 | 11320,0 |
| Ko'rsatkich | Standart chetlanish | Variatsiya | Asimmetriya | Ekstsess |
| SD | 823,43 | 0,63830 | 1,2139 | 1,6832 |
| BS | 109,59 | 0,078761 | -0,70181 | -0,61804 |
| KS | 6223,7 | 0,30272 | 0,81135 | 0,29087 |
| I | 3230,9 | 1,1165 | 1,6061 | 1,4960 |

Ma'lumotlarning tasviriy statistikasidan ko'rindiki, mazkur tadqiqotimizda kuzatuvlar soni 15 tani

tashkil qiladi. SD ning eng past miqdori 267,3 mldr.so'm, eng yuqori miqdori 3532 mldr.so'mni tashkil etgani holda,

investitsiyaning minimumi 178.2 mlrd.so'mni, maksimum miqdori 11320,2 mlrd.so'mni tashkil etgan. BS ning minimumi 1170,6 ming nafarni, maksimumi 1525,7 ming.nafarni, KSning minimumi 12101 ta, maksimumi esa 35379 nafarni tashkil etgan.

Tahlilimizning dastlabki bosqichida 1-jadval ma'lumotlari asosida mahalliy byudjetning soliqli daromadlari(SD)ning bandlar soni (BS), korxonalar soni(KS)

hamda asosiy investitsiya(I)lar bilan korrelyatsiya koeffitsientini tahlil qilamiz.

3-jadvaldan ko'rinalidi, soliqli daromadlar (SD)ning bandlar soni (BS) bilan korrelyatsiyasi – 0.7796 ga, korxonalar soni (KS) bilan korrelyatsiyasi – 0.8423 ga, asosiy kapitalga investitsiyalar (I) bilan korrelyatsiyasi – 0.8084 ga teng va har uchta omil bilan soliqli daromadlar kuchli to'g'ri bog'langan.

3-jadval

2006-2020 yillar bo'yicha foydalanilgan ko'rsatkichlarning korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi

| SD | BS | KS | I | Ko'rsatkichlar |
|--------|--------|--------|--------|----------------|
| 1,0000 | 0,7796 | 0,8423 | 0,8084 | SD |
| | 1,0000 | 0,7488 | 0,5389 | BS |
| | | 1,0000 | 0,9526 | KS |
| | | | 1,0000 | I |

Natijalar. Soliqli daromadlar hajmi (SD) ning o'zgarishiga iqtisodiyotda bandlar soni (BS), korxonalar soni (KS) va asosiy kapitalga investitsiyalar (I) o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligining ekonometrik modelini hosil qilamiz. Mazkur modelning induktiv tahliliga ko'ra, yuqoridagi modelning statistik jihatdan ahamiyatliligi ifodalovchi

ko'rsatkich (R-qiyomat (F)) 0.05 dan kichik, shu sababli ham mazkur model statistik jihatdan ahamiyatli, mustaqil o'zgaruvchilar (BS, KS va I)ning bog'liq o'zgaruvchiga ta'sirini ko'rsatuvchi koeffitsientlar ham 0.05 dan kichik hamda u ham statistik jihatdan ahamiyatli (4-jadval).

4-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalar (I), iqtisodiyotda bandlar soni va (BS) korxonalar soni (KS)ning mahalliy byudjetning soliqli daromadlariga ta'sirining regressiya tenglamasi

| Omillar | Koeffitsiyent | Standart xatolik | t-statistika | P-qiyamat | |
|----------------------------------|---------------|----------------------------|--------------|-----------|-----|
| const | -8003,96 | 1186,90 | -6,744 | <0,0001 | *** |
| BS | 10,8629 | 1,64846 | 6,590 | <0,0001 | *** |
| KS | -0,383107 | 0,0803528 | -4,768 | 0,0006 | *** |
| I | 0,710454 | 0,121784 | 5,834 | 0,0001 | *** |
| Bog'liq o'zgaruvchi o'rtachasi | 1290,027 | Standart og'ish | | 823,4286 | |
| Qoldiqlar kvadratlari yig'indisi | 556546,5 | Standart xatolik | | 224,9336 | |
| R-kvadrat | 0,941370 | Moslashgan R-kvadrat | | 0,925380 | |
| F-statistika (3, 11) | 58,87219 | R-qiyamat (F) | | 4,62e-07 | |
| Logorifmik haqiqatga yaqinligi | -100,1950 | Akaike mezoni | | 208,3900 | |
| Shvarts mezoni | 211,2222 | Xanna-Kuin mezoni | | 208,3598 | |
| Rho parametri | -0,292607 | Darbin-Uotson ctatistikasi | | 2,551665 | |

Tuzilgan tenglamaning determinatsiya koeffitsienti (Moslashgan R-kvadrat) 0,9254 ga teng bo‘lib, iqtisodiyotda bandlar soni (BS), korxonalar soni (KS) va asosiy kapitalga investitsiyalar (I) miqdorlari o‘zgarishlari soliqli daromadlar hajmi o‘zgarishining 95,54 foizini tushuntirib bera oladi. Darbin-Uotson statistikasining 5 foizlik ahamiyat darajasidagi statistik jadval asosida hisoblanganda avtokorrelyatsiya bo‘lmaslik sharti $1,14 < DW < 3,73$ hisoblandi. Darbin-Uotson statistikasining kerakli oraliqda ekanligi avtokorrelyatsiya muammosining yo‘q ekanligini anglatadi. Qoldiqlarning normal taqsimlanganligi tekshirilganda ularning normal taqsimlanganligi ma’lum bo‘ldi.

Soliqli daromadlar hajmi (SD) ning o‘zgarishiga iqtisodiyotda bandlar soni (BS), korxonalar soni (KS) va asosiy kapitalga investitsiyalar (I) o‘zgarishlarining o‘zaro bog‘liqligining ekonometrik modeli:

$$SD = 10,8629 * BS - 0,3831 * KS + 0,7105 * I - 8003,96 + e$$

Bu erda: CD – mahalliy byudjetning soliqli daromadalri, mldr.so‘m;

BS – iqtisodiyotda bandlar soni, ming nafar;

KS – korxonalar soni, dona

I – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mldr.so‘mda;

e – hisobga olinmagan omillar

Izox: Mazkur model Gretl dasturiy majmuasida hisob kitoblar natijasida olindi.

Modelga ko‘ra BS (iqtisodiyotda bandlar soni)ning 1 ming nafarga ko‘payishi(kamayishi), SD (mahalliy byudjetning soliqli daromad)ning 10,8629 mldr.so‘mga ko‘payishi(kamayishi)ga, KS (korxonalar soni)ning 1 taga ko‘payishi(kamayishi) SD (mahalliy byudjetning soliqli daromad)ning 0,3831

mldr.so‘mga kamayishi(ko‘payishi)ga, I (asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi) ning 1 mldr.so‘mga ko‘payishi(kamayishi) SD (mahalliy byudjetning soliqli daromad)ning 0,7105 mldr.so‘mga ko‘payishi(kamayishi)ga ga olib kelishini bildiradi.

Munozara. Model bo‘yicha umumiyl xulosasi:

- Iqtisodiyotda ish o‘rinlarining ortishi va bandlikning ta’milanishi mahalliy byudjet daromadlarining ko‘payishiga olib keladi;
- Korxonalar sonining ortishi mahalliy byudjetning soliqli daromadlarini birmuncha kamayishiga olib keladi;
- Viloyatga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmining oshishi mahalliy byudjet daromadlarining oshishiga sezilarli hissa qo‘sadi.

Xulosa. Aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirish maqsadida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirilishini ta’minalash, markaz budgetiga qaramlikni keskin kamaytirish, budgetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy budgetlar mablag‘larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat budget siyosatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har qaysi mamlakat iqtisodiyotining jadal o’sishiga erishishi uchun, iqtisodiy muammolarni hal etishi zarur, bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi hamda aholi farovonligiga bevosita turki bo‘ladi. Soliq turlari, tizimlari, soliq siyosati va boshqa qator soliqqa oid muhim mavzularni rivojlangan chet el mamlakatlari tajribasida amalga oshirilgan va ishonchli o‘rganilgan, tatqiqot qilingan adabiyotlar bilan chuqur o‘rganish, soliq siyosatini yuritishda, ularni joriy qilishda va amalga oshirishda ilg‘or



chet el mamlakatlaridek siyosat yuritish zamon talabiga aylanmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, soliqlar aynan shu maqsadlarga erishishda eng muhim omil sanaladi va har bir davlat hukumati aynan shu tizimi mukammallashtirsagina, iqtisodiy rivojlanishga va farovonlikka erishadi.

Soliqlar — bu davlat sarf-xarajatlarini ta'minlovchi asosiy manbaa bo'lib, u bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning va iqtisodiy yetuklikka erishishning asosiy va muhim dastagi hisoblanadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Allocating Tax Revenue to Sub-Central Government Levels: Lessons from Germany and Poland. Institute of Economic Research Working Papers No. 17/2015. http://www.badaniagospodarcze.pl/images/Working_Papers
2. Sh.A.Toshmatov Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat byudjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo'nalishlari // O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2017 yil 10 noyabr. -T.: TDIU, 2017. -b.27-28
3. Kenjabayev O.T., Fozilov A.F., Alimov O.R. Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlar va xarajatlarini samarali boshqarish masalalari // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №1, fevral, 2017 y.
4. Burxanov A.U., Qurbonov X.A. Hududlarda mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo'llari // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil.